XORAZM VILOYATI TUPROQQAL'A TUMANI HOKIMINING QARORI

Tuproqqal'a tumani, Pitnak shahri, Mustaqillik ko'chasi, 1-uy

2022 - yil 28 - yanvar 19-12-218-Q/22 Tuproqqal'a tumani hokimligi

Tuproqqal'a tumani "Hazorasp-Pitnak" 4R-156D avtomobil yo'lining "UzAuto Motoros" AJ binolari joylashgan qismiga, ya'ni zavodning yuk avtomashinalari va avtobuslari 4R-156D avtomobil yo'lga chiqish qismiga sveta diodli svetofor o'rnatishga ruxsat berish to'g'risida

"UzAuto Motoros" AJning 2021 yil 17 iyundagi 740-497-sonli yozishmasini va Xorazm viloyati avtomabil yo'llari xududiy bosh boshqarmasining 2021 yil 24 iyuldagi 05/700 sonli xatini e'tiborga olib, Tuproqqal'a tumani "Hazorasp-Pitnak" 4R-156D avtomobil yo'lining "UzAuto Motoros" AJ binolari joylashgan qismiga, ya'ni zavodning yuk avtomashinalari va avtobuslari 4R-156D avtomobil yo'lga chiqishda qulaylik yaratish, yo'l transport hodisalarining oldini olish va harakat xavfsizligini ta'minlash maqsadida, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risidagi" Qonunining 6,10-moddalariga asoslanib,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. "UzAuto Motoros" AJning 2021 yil 17 iyundagi 740-497-sonli yozishmasi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuproqqal'a tumani "Hazorasp-Pitnak" 4R-156D avtomobil yo'lining "UzAuto Motoros" AJ binolari joylashgan qismiga avtomobillar xarakatini boshqaruvchi "Svetofor" chiroqlari o'rnatishga ruxsat berilsin.

3. Tuman ichki ishlar bo'limi boshlig'i I.Allaberganov va tuman YFUK korxonasi raxbari D.Niyazmetov, tuman obodonlashtirish boshqarmasi boshlig'i R.Yo'ldoshov Tuproqqal'a tumani "Hazorasp-Pitnak" 4R-156D avtomobil yo'lining "UzAuto Motoros" AJ binolari joylashgan qismiga avtomobillar

harakatini boshqaruvchi “Svetofor” chiroqlarini belgilangan talablar doirasida o‘rnatilish choralarini ko‘rish topshirilsin.

4. Mazkur qaror rasmiy e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi;

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari Z.Matchanov zimmasiga yuklatilsin.

Туман ҳокими **А.Салаев**